



**“Risola yohud mang’itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi”
asarining ilmiy ahamiyati**

Sattorov Sarvar Safar o’gli

Buxoro davlat universiteti Tarix va yuridik fakulteti

II bosqich magistr talabasi.


ssattorov2406@gmail.com

Annotatsiya: Ahmad Donishning risolasida Buxoro amirlarining ichki va tashqi siyosati haqida ma’lumot beradi. Biz bu risola orqali amirlik hayoti va xalq taqdiri haqida qimmat ma’lumotlar bilib olishimiz mumkin.

Kalit so’zlar: Buxoroi sharif, boshboshdoqliklar, sulh, qo’lyozma, ilmiy meros, akademik, falsafiy, ijtimoiy qo’lyozma.

Buxoro islomining sharif shaharlaridan biri hisblanadi. Bu shahar ilm-fanga qo’shgan hissasi bilan alohida ajraladi. Buxoro tarixini yorishda Ahmad Donishning o’rni beqiyos. Amirlik davrida katta lavozimlarda faoliyat yuritgan Ahmad Donishning bizgacha oz asrlari yetib kelgan. Siyosatchi, astronom, olim va elchi Ahmad Donishning Buxoro tarixiga bag’ishlangan “Risola yoxud mang’itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi” asari 1895-1897 yillarda yozilgan. Asarning Toshkent, Samarqand, Buxoro, Dushanbe qo’lyozma nusxalari borligi ilmiy jamoatchilikka ma’lum bo’lishiga qaramay, uning aslida qanday nomlangani aniqlanmagan. Bunga sabab muallifning asarga nom bermaganligidir¹.

¹ To’rayev H. Buxoro tarixi yozma manbalarda. Buxoro: Durdona. 2023. -b 116



Tojikiston Fanlar Akademiyasi akademigi Abdug‘ani Mirzoyev tomonidan asarning shartli nomdagi ilmiy-tanqidiy матн chop etilgan.

Mashhur sharqshunonos olim Y.E. Bertels tomonidan 1936 yili “Ahmad kalla asarlari qo‘lyozmasi” nomli maqolasini e‘lon qiladi. R.Hodizodaning 1957 yilli “Chand sahifai nav dar tarjimai hol ijodiyoti Ahmad Donish” maqolasi va S.U.Ulug‘zodaning 1959 yili “Ahmad Donish” risolasi nashr etilishi bilan Ahmad Donish ijodini o‘rganish keng avj olib ketdi. Mashhur Akademik Ibrohim Mo‘minov 1955 yilda, Z.Rajabov 1957 yilda, 1961 yilda A. Bohavuddinovning monograflarida XIX asrda O‘rta Osiyoda falsafiy, siyosiy, ijtimoiy fikrlariga alohida urg‘u berilgan².

1960 yilda Ahmad Donishning “Risola yo muxtasare az tarixi saltanati xonadoni mang‘itiya” asari arab alifbosida, tojik tilida nashr etildi. Najafova 1967 yili Тракта́т Ахма́да Дони́ша Исто́рия манги́тской дина́стии” nomi bilan rus tilida chiqadi³. Yo‘ldoshev Qiyomiddin bu risolani o‘zbek tilida tarjima qishda ayrim jumlarini I.A.Najafova tarjimasidan foylanadi. Asarni biz shartli ikki qismga bo‘lishimiz mumkin ; birinchi qismi muallif faqat yozma manbalardan o‘qishi yoki eshitishi mumkin bo‘lgan, ikkinchisi o‘zi guvohi bo‘lgan voqealarni hikoya qilib yozadi

Asarda Amir Doniyolbiydan boshlab amir Abdulahadga qadar bo‘lgan voqealar yozilgan. Ahmad Donish Amir Doniyolbiy davrini ijobiy baholamaydi. Uning davrida davlat boshqaruvida boshboshdoqlik avjiga chiqqan, madrasalarning hujralari meshkobning eshagi uchun og‘ilxona edi” deya ta’riflaydi. Mamlakatdagi bunday tartibsizlikka sabab Mang‘it Mardumilarning davlat ishlariga aralashuvi deydi mallif⁴.

² Ahmad Donish. Risola yohud mang‘itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi. -T: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2014. -B.4

³ Ahmad Donish Risola yohud mang‘itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi. -T: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2014. -b5

⁴ Ahmad Donish. Risola yohud mang‘itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi. -T : O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi 2014. -



Mirzo Somiyning “Tarixi salotini mang’itiya” asarida Amir Doniyolbiy davrini ijobiy baholaydi. Uning fazilatlarida haqida gapirar ekan “yumchoq, aqlli va sabrli”deya ta’riflaydi⁵. Bu ma’lumotlar bilan uning davri yamon bo’lmaganidan ma’lumot beradi.

Amir Shohmurod hukmronlik davrini ijobiy baho beriladi. Uning dono, adolatpeshaligi, soliqlarni kamaytirgani e’tirof etiladi. Mirzo Salimbek “Kashko’li Salimiy tarvorixi muttaqadi va mutaaxirin” asarida “...Amir Shohmurod 16 yil podshohlik qilib, 61 yil umr ko’rib haqni rahmatiga payvasta bo’lib olamdan o’tdi” deya ta’rif beradi⁶. Bu ma’lumot uning davrini yaxshi bo’lganligini tasdiqlaydi. Ahmad Donish risolasida Amir Haydar davridagi to’xtovsiz nizolar haqida ma’lumot berish barobarida, muallif, hukmdorning xudojo’yligi, diniy ilmlar bilan shug’ullangani, ulamolar suhbatini xush ko’rishi, uning davrida Buxoro diniy ilmlar markaziga aylanganiga urg’u beradi.⁷

Mirzo Somiy “Tarixi salositini mang’itiya” asarida Amir Haydarni saxiy tilga olib davlat ishlarida bandligiga qaramasdan, madrasada ilohiyotdan dars berganini yozadi.⁸

Shuningdek, amir Haydarning o’g’illari – amir Husayn va amir Umarning ikki oylik hukmronligini ham yodga olib o’tadi. Ahmad Donish amir Nasrulloni kuchli, shafqatsiz hukmdor sifatida tasvirlaydi va o’z maqsadini amalga oshirish yo’lida hech narsadan qaytmasligini yozadi. Muallif ta’kidlashicha, amir Nasrullo nimani to’g’ri deb hisoblasa, u shariatga mos deb qabul qilingan va ijrosi ta’minlangan. Uning davrida amirlik hududlari bir oz kengaygani qayd etiladi. Rossiya imperiyasi amir Nasrullo davrida Sirdaryo bo’yida qal’a barpo qiladi. Amir Nasrulloga muxolifga qarshi kurash boshlashni maslahat berishadi. Yo’qsa, ruslar qal’adan sekin-asta Buxoro tomonga qarab yurish boshlashi mumkinligini uqtirishadi.

⁵ Мирза Абдал Азим Сами.Тарих-и салатин-и мангитийа.-М.1962.-б 46

⁶ Kashkuli Salimiy. Tavorixi muttaqadimin va muttaaxirin.-Buxoro: Buxoro.2003.-b261

⁷ To’rayev H. Buxoro tarixi yozma manbalarda.-Buxoro: Durdona2023.-b117

⁸ Мирза Абдал Азим Сами.Тарих-и салатин-и мангитийа.-М.1962.-б 53



Lekin amir harbiy qudratining yetarli emasligi, qal'a esa amirlik hududidan tashqarida ekanligini sabab qilib, harbiy harakat boshlashni rad etadi.

Mirzo Somiy “ Tarixi salotini mang’itiya ” asarida ham Amir Nasrullo qattiqo’l, boshqalar bilan umuman hisoblashmaydigandigan hukmdor sifatida tasvirlaydi⁹.

Ahmad Donish asarining katta qismi amir Muzaffar davriga bag’ishlangan. Taxtga o’tirgach, otasi tarafdorlarini ta’qib ostiga oladi. Hisor va Qo’qonga qilgan muvaffaqiyatli harbiy yurishlari hukmdorni havolantirib, qaror chiqarishdan oldin hech kim bilan maslahatlashmay qo’ygani tanqid ostiga olinadi.

Amir Muzaffarning davrida zindon mahbuslarga shunchalik to’lib ketgan ediki, joy tangligidan ayrim mahbuslarni qatl etish hisobiga yangilariga joy tayyorlashardi. Arzimagan ayblar bilan ham zindonga tushish tayin edi.¹⁰

Muallifning amir Muzaffar faoliyatiga bunday salbiy munosabati ular o’rtasida shaxsiy xusumat borligiga ba’zan ishora qiladi. Lekin baribir bunday ma’lumotlarning tarixiy qimmatini saqlanib qoladi. Mirzo Somiyning “Tarixi salotini Mang’itiya” asarida adolatli, muruvatli va saxiyliги uchun xalq undan minnatdorligini yozadi.

Toshkent rus qo’shinlari tomonidan olingandan so’ng va Jizzax yurishiga tayyorgarlik ko’rilayotgan paytda ulamolar va madrasa talabalari xalq ommasini g’azavotga chaqirdilar. Ulamolar qo’llariga tayoq olib xalqni g’azavot jangiga borishga majbur qildilar. Ahmad Donish harakatga tanqidiy baho berib, shunday yozadi: ”Ulamolar jihod to’g’risida bong ursalar-da, bu urushning nega zarurligini bilmasdilar. Dushmanning kuchi, harbiy qurollari to’g’risida tasavvurga ega emas edilar. Dushmanga qarshi kuchlarni qaysi tarafga yo’naltirish kerakligini anglab yetmasdilar.

⁹ Мирза Абдал Азим Сами.Тарих-и салатин-и мангитийа.-М.1962.-б 50


¹⁰ To’rayev H . Buxoro tarixi yozma manbalarda.Buxoro: Durdona.2023.--b.118



Viloyatlardan yig'ildigan soliqlar hisobiga maosh oladigan qo'shin nega kerakligini va uni ta'minlash nima uchun zarurligini idrok eta olmasdilar. Vaholanki, bularning bari xalq yelkasidagi og'ir yuk edi. Muntazam qo'shin udda qilolmagan ishlarni xalq lashkari udda qilar olarmidi? Lashkarni ta'minlashning ma'nosi shuki, dehqonlar dushman hujumidan xalos bo'lsin, lashkar ularni himoya qilsin. Dehqonlar urush davrida lashkarni himoya qilishi, [unga ko'mak berishi] umuman shart emas. Chunki, tinchlik davrida lashkar fuqaroning qonini so'radi. Urush payti esa fuqaroni jangning oldingi saflariga jo'natishadi. Bu narsa quloq eshitmagan yangi tartibdir. Biron-bir boshqa millatda bunday tartibni uchratmaymiz".¹¹¹

Masalan, amir Muzaffar rus armiyasining qaysidir bir otryadi bilan jang qilishni orilib, zarur bo'lsa, to'g'ridan-to'g'ri Moskvaga yurish qilishini aytgan. Jang harakatlari kechayotganda, amir Muzaffar chodirda bemalol o'tirib shaxmat o'ynaganini muallif kinoya bilan yozadi. Amir Muzaffarning o'z kuchiga haddan ziyod ishongani va muxolif qudratini mensimasligi qanday oqibatga olib kelgani risolasida voqealar tizimida ifodalab berilgan. O'q ovozi eshitilganda, u harbiy boshliqlariga ruslarning xazinasini navkarlar qo'liga o'tib ketmasligini va rus asirlarini sarbozga aylantirish uchun o'ldirmaslikni nazorat ostiga olishga buyruq beradi. Ahmad Donish keyingi voqealarni tanqid ko'zi bilan yoritadi. Tez orada amir lashkarlari o'rtasida sarosima boshlanganini, amir Muzaffar kiyimi va sallasini kiyishni ham unutib, otga minib qochib qolganini afsus bilan yozadi. Mag'lubiyat sabablarini muallif harbiy boshliqlarning o'ta tajribasizligi, harbiylarga maosh to'lashda tartibning yo'qligi, harbiy jangchi vafot etganda oilasining ta'minotsiz qoldirilishi va muxolif to'g'risida ma'lumotga ega emaslikda ko'radi.

¹¹ To'rayev H. " Buxoro tarixi yozma manbalarda". Buxoro: Durdona .2023.-b 118



Shu o'rinda Mirzo Somiy " Tarixi saloni mang'itiya" asarida " ruslar Toshkentni bosib olishi paytida amir Muzaffar Qo'qonda yurish boshlagani qo'qonlik askarlar Toshkent himoyasini tashlab Qo'qonga ketishini bu holat ruslarga Toshkentni egallashni osonlashtirganini " aytib ,bu holatni qoralaydi.¹²¹²

Bu ma'lumotlardan bilish mumkin-ki amir Muzaffar rus xavfini to'g'ri baholay olmagan, Qo'qo'n va Xiva xonlari bilan kelishish siyosatini yuritmaganligini amir Muzaffarni yengilishiga sabab bo'ldi.

Xalqning og'ir turmushi, amaldorlarning yulg'ichligini muallif bir qadar tilga olib o'tadi. Uning fikricha, biron-bir beva ayol bozorga kelib bir kalava yigirilgan ipni uch fulusga sotsa, ikki fulusini amin tortib olgan. O'tinkash bozorda bir bog'lam o'tinni uch dirhamga sotsa, ikki dirhami aminning ulushi hisoblangan. Umuman, Buxoroning ijtimoiy-maishiy hayotidagi negativ holatlar misollar vositasida yoritib berilgan.¹¹³³

Bu ma'lumotlar orqali amir Muzaffar davrida aholi turmush tarzi o'g'ir o'tganligi , amir Muzaffaning ichki siyosatda befarqligini, saroy ayonlarining nohaqliklari, soliqlarning ko'pligi va aholi uchun o'g'irligini bilishimiz mumkin.

Risoladagi e'tiborga molik ma'lumotlardan biri, Ahmad Donish amir Muzaffarga Amudaryodan Kalif va Karkiga suv tortish loyihasini taqdim qilgan. Chunki bu davrda Zarafshon daryosi suv taqsimoti Rossiya imperiyasi hukumati nazoratiga o'tib ketgan edi. Demak, amirlikdagi iqtisodiy muammolarga Ahmad Donish befarq bo'lmagan. Mavjud ijtimoiy-siyosiy tuzumga tanqidiy munosabat, hukmdor faoliyatidagi negativ jihatlarni ochiq-oshkora bayon qilish, bir tomondan, asar muallifining jasorati bo'lsa, ikkinchi

¹² Мирза Абдал Азим Сами .Тарих-и салатин-и мангитийа.-М.1962.

¹³ To'rayev H ." Buxoro tarixi yozma manbalarda".Buxoro:Durdona .2023.-b.119



tomondan, uning tarixnavislikdagi stereotiplardan qochishga harakat qilganini ko'rsatadi. Asar shu xususiyatlari bilan ham qimmatli¹⁴.¹⁴

Xulosa qilib, Ahmad Donishning "Risola yohud Mang'itlar sulosi xonadoning qisqacha tarixi" asarida Ahmad Donish amirlarning kamchiligini, xalqning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli o'g'irligi va harbiy islohatlar o'tkazmaganligi. Rus bosqini arafasida Amir Muzaffarning xalqni birlashtiradigan farmonlar chiqarmaganligi. Ta'limda e'tibor yo'qligi, xorij mamlakatlarida ilm-fan rivojlanib, texnologiya davri boshlangani, bizning millat turg'unlik holatida qolib ketganligidan afsuslanadi, Amirlarning bunga befarqligi esa Muallifni xafa qiladi. Bu risolada Ahmad Donish o'z davrining jon kuyar siyosatchisi bo'lganligini bilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To'rayev H. "Buxoro tarixi yozma manbalarda". Buxoro. Durdona
2. Kashkuli Salimiy. "Tavorixi muttaqadimin va muttaaxirin". - Buxoro. Buxoro. 2003
3. Ahmad Donish "Risola yohud Mang'itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi". - T.O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2014
4. Мирза Абдал Азим Сами. Тарих-и салатин-и мангитийа. - М. 1962.

¹⁴ To'rayev H. "Buxoro tarixi yozma manbalarda". Buxoro: Durdona. 2023 - b120